



## XONANDA OVOZI BILAN BOG’LIQ MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Muallif:** Suhrob Jumayev<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasida “Ovozni yo‘lga qo‘yish” fani o‘qituvchisi, tayanch doktorant<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14468188>

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kundagi xonandalar oldida turgan asosiy vazifalar sanab o‘tiladi. Bunda mutatsiya, ovoz diapazoni haqida so‘z boradi. Xonanda kunlik e’tibor berishi kerak bo‘lgan jihatlari sanab o‘tiladi. Asarning mazmunini anglagan holatda ijrochilik faoliyatini olib borish muhimligi aytib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ovozning rastalanishi, mutatsiya, ovoz diapazoni, intonatsiya, affekt.

Yoshligidan xonandalik san’atini tanlaganlar oldida doimo bir sinov davri turadi. Ovozning rastalanishi. “Ma’lumki, ovozning “rasta” bo‘lishi deb ataladigan mazkur palla qizlarda, asosan, 13 yoshdan 15 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda esa 15–18 yoshlar orasida ro‘y beradi. Bu muddat ichida ovoz kuchsiz, bo‘g‘iq, ko‘pincha, hatto butunlay jarangsiz holatga tushib qoladi”. Rastalanish (ovozda) aynan mutatsiya demakdir. Mutatsiya esa balog‘at yoshidagi bolalar ovozining ma’lum davrda o‘zgarib borishini bildiradi. Ushbu davrda xonanda tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan ustoz juda ehtiyotkorlik bilan dars jarayonini olib borishi kerak bo‘ladi. Bunda u dars vaqtida xonandaning ovoz diapazonidagi o‘rta pog‘onalar ustida ko‘proq ishlashi kerak bo‘ladi. Ovoz diapazonining yuqori pog‘onalarda esa kamroq ishlaganlari ma’qul. Ovoz diapazoni xonandaning ijrochilik imkoniyatini belgilab beruvchi eng asosiy jihatlardan biridir. Uni kengaytirish maqsadida yosh ijrochini yuqori pog‘onalarda ko‘p kuylatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ovoz paychalari bilan muammo yuzaga kelganda, uning yechimini topish ham murakkabdir. Shu sababli ustoz xonandani sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak.

Xonandalar bilan bog‘liq yana bir masalalardan biri sifatida asar ijrosida musiqiy soflikning buzilishini keltirishimiz mumkin. Bunda ijrochi asarning notalarini o‘zi bilmagan holatda buzib kuylashi, tonda turish vaqtida xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Bu esa albatta tinglovchi tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi. Bunday xatolarga yo‘l qo‘yilishiga quyidagi holatlar sabab bo‘lishi mumkin:

xonandaning yaxshi hordiq olmaganligi. Yetarlicha uyqu bo‘lmasligi. Xonandalar uchun uyquning me’yorda bo‘lishi juda muhimdir;

ovqatlanish tartibining buzilishi. Chunki hazm qilish tizimining bir me’yorda ishlashi xonanda bo‘lmagan har bir kishi uchun ham muhimdir. Bu holat yuqoridagi uyqu masalasi bilan o‘zaro bog‘liq. Uyquning buzilishi ushbu holatga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi;

xonanda salomatligidagi kamchiliklar. Eng asosiylaridan biri bo'lgan ushbu holatda xonanda bemalol asar ijro qilishda qiynaladi. Shamollash, bosh og'rig'i, o'pka bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

Kayfiyatning salbiy holatda bo'lishi. Bu holat esa xonandani butunlay asar ijro etolmaydigan vaziyatga olib kelishi mumkin.

Agar xonanda quyidagi sanab o'tilganlarda ijobiy holatda bo'lsa, o'ziga talabchan bo'lsa, albatta yaxshi natijalarga erishadi. Bu tavsiyalar dars jarayonida ham ko'p bora ta'kidlanadi. Asar intonatsiyasi buzilishining oldini olish uchun ham ushbu holatlarda ehtiyotkor bo'lish kerakdir. "Intonatsiya (lot. intono – qattiq aytaman) – keng ma'noda: badiiy obrazni musiqa tovushlari bilan to'g'ri ifoda etish. Tor ma'noda: 1. Musiqa tovushlari harakatida yuqorigi tovushlar munosabati. 2. Musiqadagi baland-past tovushlarning to'g'ri (aniq) ijro qilinishi. Ayniqsa, ashula aytganda yoki pardasiz cholg'u asboblari (torli-kamonchali asboblari) ijrosida tovushlarning "sof" (aniq) yo "nosof" (noaniq) eshinishi. Intonatsiya tovush balandligining to'g'ri yo noto'g'ri ijro etilishini bildiradi".

Xonanda oldida turgan yana bir masalalardan biri sifatida asarning matni va xonandaning unga bo'lgan munosabatini ham aytishimiz mumkin. Chunki asarning ma'nosini anglagan holda ijro etish har bir xonandani yuksakka ko'taradi. Badiiy adabiyotlar bilan muntazam qiziqish professionallikka olib boradi. Asar ijrosi esa ta'sirliroq bo'ladi. "J.Xerris she'riy matn musiqiy affektga yo'nalish berib, uning kuchi va ta'sirini oshirishi haqidagi fikrni ham o'rtaga tashlaydi: "Musiqa va she'riyat hech qachon alohida-alohida holda ular birlashganda erishiladigan affektni berolmaydi"". Bunda affekt so'zi jo'shqin emotsiyalarni bildiradi. Asarning ichki dunyosini to'liq ochib bera olgan xonanda xalq orasida katta e'tibor qozonadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

Қодиров Р. Музыка психологияси. – Тошкент: "Музыка" нашриёти, 2018.

Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015.